

## O‘ZBEKISTONDA GEOGRAFIYA TA’LIMINING RIVOJLANISHI

Buxoro davlat pedagogika instituti  
Geografiya kafedrasи dotsenti N.Sh.Shadiyeva  
Geografiya ta’lim yo‘nalish talabasi D.Mamataliyeva

**Annotatsiya.** Maqolada O‘zbekistonda geografiya fanining ta’lim tizimidagi rivojlanishi va uning o‘quv dasturlari orqali amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Geografiya faniga bo‘lgan qiziqishni oshirish, fanlarning integratsiyasi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash kabi yondashuvlar ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, maqolada geografiya o‘qituvchilarining malakasini oshirish va ta’lim resurslarini boyitish orqali geografiya fanining ahamiyatini kuchaytirish choralari muhokama qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Geografiya ta’limi, O‘quv dasturlari, Innovatsion pedagogika, O‘zbekiston ta’lim tizimi, O‘qituvchi malakasi, Ta’lim resurslari.

Ta’lim tizimini to‘g‘ri tashkil etish talabalarni bilimni olish hamda o‘zlashtirish, ta’lim muhitini samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi omillardan hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim beruvchilarining ta’lim-tarbiya berish usullarini va o‘qitish vositalarini ham o‘zgartirishga olib keladi. O‘quvchi-talabalarni o‘qitish jarayoniga zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarini jadalik bilan kirib kelishi ularning material o‘zlashtirishi, tezkor kerakli ma’lumotlarini olishlariga xizmat qiladi.

Geografik bilimlarning dastlabki to‘planishi eramizdan oldingi VII asrgacha davom etgan. Geografik bilimlar ibridoiy jamoa davrida insonlarni ehtiyoji munosabati bilan foydalana boshlangan. Insonlarning dastlabki geografik bilimlari joyda mo‘ljal olish va eng sodda kartalar tuzishdan mavjud bo‘lgan. Insonlarni dengiz orqali suza boshlashi geografiya fanini takomillanishida juda yuqori omil bo‘lib sanaladi. Ayniqsa Kritliklarning O‘rta dengiz bo‘ylab suzishlari va Gibraltar bo‘g‘ози yordamida Atlantika okeaniga chiqish juda ko‘p geografik nomlarni vujudga kelishiga olib keldi. Bunday nomlarga Yevropa va Osiyo nomini aytish mumkin. Kritliklar uchun g‘arb tomon Yevropa, sharq tomon Osiyonini bildirgan.

Eramizgacha VI-asrga kelib yerning shakllanishi to‘g‘risida turli xil fikr va qarashlar paydo bo‘ldi. Ushbu bosqichda yer haqidagi geografik bilimlar Anaksimandir o‘scha vaqtida fanga ma’lum bo‘lgan dunyo kartasini chizgan va yerni tavsiifini tuzgan. Shundan boshlab geografiya bo‘yicha yirik asarlar yozila boshlandi. Ular geografik darsliklar o‘rnini bosgan. Aristotel tomonidan miloddan avval IV-asrda yerning sharsimonligi, yerda issiqlik mintaqalarining mavjudligi isbotlandi. Dunyo kartasi tuzildi. Uning kartasida Gomer kartasidagi joylar yanada kengaytirilgan. Uning kartasida odamlar yashaydigan issiq mintaqa va kishilar yashamaydigan sovuq mintaqa ajratib olingan. Aristotel tomonidan tuzilgan dunyo kartasida Afrikaning shimoliy qismi, Osiyo va Yevropa qit’alari tasvirlangan. XVII-asrdan boshlab Yer yuzasi tabiatini o‘rganish bo‘yicha maxsus ekspeditsiyalar uyuşhtirila boshlandi. Geografik ma’lumotlarni yig‘ilishi va ularni umumlashtirish yordamida yirik ilmiy va amaliy natijalar olindi. XVII asrning o‘rtalarigacha geografiya alohida predmet sifatida o‘qitilmas edi. Geografik bilimlar mamlakatshunoslik kurslari tarkibida berilar edi. Buyuk geografik kashfiyotlar va ilmiy geografik tadqiqotlar bosqichi natijalari ta’sirida geografiya faniga bo‘lgan e’tibor yanayam orta boshladi. Buning natijasida XVII-asrning ikkinchi yarmidan boshlab G‘arbiy Yevropa davlatlari maktablarida geografiya alohida predmet sifatida o‘quv dasturiga kiritildi. XVIII-asrdan boshlab esa geografiya hamma maktablarda o‘qitiladigan bo‘ldi. XVIII- asrning boshlarida maktablarni ixtisoslashuviga ko‘ra geografiyaning faqatgina ma’lum bir tarmog‘i o‘qitilar edi.

Ushbu vaqt mobaynida yurtimizda geografiya ta’limining shakllanishi rus-tuzem maktablarining ochilishi va ushbu maktab o‘quvchilari uchun darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari yaratilishi bilan bog‘liq. Mazkur munosabat bilan XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida o‘zbek tilida juda ko‘p darslik va qo‘llanmalar chop qilindi. Ushbu vaqtida geografiya fanini takomillanishi ma’lum bir omillarga bog‘liq bo‘lgan.

Binobarin, Rossiya O‘rta Osiyon bosib olgandan keyin, uni boshqarish uchun rus tilini biladigan mahalliy millat vakillari kerak edi. Ikkinchi tomonidan XIX-asrning oxirlarida Turkistonda milliy uyg‘onish vaqtি boshlandi, ya’ni jadidchilik davrida millat taraqqiyotini yanayam rivojlantirish niyatida yangi usul maktablari tashkil etila boshlandi.

O‘zbekistonda geografiya ta’limini tashkil qilish davrining boshlarida geografiya ta’limida yagona o‘quv dasturi mavjud bo‘limgan, har bir maktab, tuman va shahar o‘zining o‘quv dasturini ishlab chiqar edi. Masalan, 1920 yili Toshkent eski shahar maorif bo‘limi tomonidan mahalliy sharoitni hisobga olgan tarzda birinchi bosqich maktablari uchun geografiya fanidan o‘quv dasturini nashrdan chiqardi. Ilk umumdavlat o‘quv dasturi geografiya predmeti bo‘yicha D.N.Anuchin rahbarligida A.A.Borzov va S.V.Chefranovlar tomonidan ishlab chiqildi. Mazkur o‘quv dasturi asosida Turkiston xalq maorif komissariati geografiya fanidan o‘quv dasturini ishlab chiqdi. 1923-1924 yillardan boshlab mehnat maktablari uchun kompleks dasturlar ishlab chiqildi.

Ayni damda Oliy ta’lim sohasidagi 3D loyihalashning zamonaviy tendentsiya, talablar va katta salohiyatga ega. Ta’limdagi 3D yordamida loyihalangan darslar va ma’ruzalarни diversifikatsiya qilish, o‘quv jarayonini samarali va vizual hajmli qilish imkonini beradi. Bu dasturlardan foydalanish vizual tarzda tushuntirish imkonini beradi kengaytiradi. Bo‘lajak mutaxassis kadrlarga dars davomida butun tuzilishdan mobil tarzda o‘tishga va o‘rganilayotgan mavzuni “singdirishga” imkon beradi.

Oliy ta’lim uchun uning dasturiy ta’lim vosita elementlari, murakkabdan oddiygacha va aksincha bo‘ladi. Masalan: kontent testlar, 3D videolar, simulyatsiyalar, virtual laboratoriylar, interaktiv topshiriqlar, o‘yinlar, shuningdek matnlar, rasmlar va giperhavolalar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, geografiya ta’limi tarixi bilimli va mas’uliyatli insonlarni shakllantirishda fazoviy bilimlar, atrof-muhitni anglash va madaniy tushunishning doimiy ahamiyati haqida guvohlik beradi. Geografiya ta’limining qadimiylaridan zamonaviy sinfgacha bo‘lgan evolyutsiyasini kuzatib borish orqali biz geografik bilimlarning ta’lim tajribasini boyitish, dunyoga qiziqish uyg‘otish va o‘zaro bog‘langan sayyoramizga chuqurroq munosabat bildirishdagi o‘zgaruvchan kuchi haqida tushunchaga ega bo‘lamiz. Geografiya fani innovatsiyalarni, inkluyuzivlikni o‘z ichiga oladi va barqarorlik geografiya ta’limining dolzarbligi, jozibadorligi va kelgusi avlodlar uchun vakolatli bo‘lishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

- O‘quv rejasiga 3D lavhalarni kiritilishi yuqori malakali kadrlar tayyorlanish imkonini beradi
- Jahon darajasidagi ta’lim muassasalari qatorida joy oladi
- Innovatsion raqobatbardoshlikni sezilarli darajada oshiradi
- Kelajak avlodlar o‘z g’oyalarini bundan ancha samaraliroq amalga oshirish uchun yo‘l ochadi
- Ta’lim muassasasining ilmiy salohiyatini oshirish – imkoniyatini oshiradi
- Ko‘proq ma’lumotni o‘zlashtirishga yordam beradi, bu test va imtihonlar natijalariga ijobiy ta’sir qiladi
- Bilimlarni tizimlashtirishga yordam beradi
- Jarayonlar va ob’ektlarning 3D (uch o‘lchovli lavha) ni kiritish talabaga ta’lim sohasiga bo‘lgan motivatsiyani oshiradi
- Talabalarga dasturning “qiyin” mavzularini yaxshiroq tushunishga yordam beradi
- O‘qituvchilarni yuqori sifatli o‘quv materiallari bilan ta’minlash; murakkab tushunchalarni tushuntirishga vaqtini tejaydi

Bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash murakkab jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonni amalga oshirishda, ta’lim jarayoning modelini takomillashtirish muhim o‘rin tutadi. Ko‘pchilik mualliflar tomonidan bo‘lajak mutaxassis kadarlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modeliga, muayyan bir sifatlarni tushunishni ta’kidlagan

#### Foydalabilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Vaxobov X., Abduraxmonov B., Eshpo’latova N. Umumta’lim va o’rta maxsus ta’lim muassalarida geografiya ta’limining o’rni va tuzilishi. O’zbekiston geografiya jamiyati axboroti, 25 jild, T.2003
2. Шадыева.Н.Ш. Научно-методическое значение развития творческих способностей молодых учителей географии при использовании программных средств обучения // Электронный журнал «Наука и образование». № 5 стр.
3. Shadiyeva, N. Geografiya o‘qitish metodikasiga oid bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarning tahlili. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), (2022). 26(26)..